“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=377

2026-yil
7-son
iyul
ISSN 3093-8546



Davlat xaridi shartnomalarini tuzishda sun’iy intellektdan foydalanish muammolari

Feruza Samandarova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: feruuzzakh99@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada davlat xaridi shartnomalarini tuzish jarayoniga sun’iy intellektni tadbiq qilish fuqarolik-huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik va davlat xaridi qonunchiligi tahlili asosida, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 259-farmoni va Vazirlar Mahkamasining 865-qarori bilan tasdiqlangan “2025–2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasi” asosida joriy etilayotgan sun’iy intellekt texnologiyalarining fuqarolik-huquqiy oqibatlari kompleks tahlil etilgan. Xususan, davlat xaridi shartnomasini tuzishda sun’iy intellektning ishtiroki, elektron oferta va akseptning huquqiy tabiati, algoritmik qarorlar natijasida vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik hamda shartnoma erkinligi prinsipining ta'minlanishi masalalari o‘rganilgan. Milliy qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar aniqlanib, xalqaro standartlar asosida normativ takomillashtirish bo‘yicha muallif takliflari ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. davlat xaridi shartnomasi, sun’iy intellekt, elektron bitim, oferta, aksept, shartnoma erkinligi, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, algoritmik qaror

Аннотация. В настоящей статье с гражданско-правовой точки зрения проанализировано внедрение технологий искусственного интеллекта в процесс заключения договоров государственных закупок. На основе анализа действующего гражданского законодательства и законодательства о государственных закупках Республики Узбекистан, в том числе Стратегии совершенствования и развития системы государственных закупок на 2025–2027 годы, утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан № 259 и Постановлением Кабинета Министров № 865, проведен комплексный анализ гражданско-правовых последствий внедрения технологий искусственного интеллекта. В частности, исследованы участие искусственного интеллекта в заключении договора государственной закупки, правовая природа электронной оферты и акцепта, вопросы гражданско-правовой ответственности, возникающей вследствие алгоритмических решений, а также обеспечение принципа свободы договора. Выявлены пробелы в национальном законодательстве и разработаны авторские предложения по совершенствованию нормативно-правового регулирования на основе

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

международных стандартов.

Ключевые слова. государственный контракт (договор) о государственных закупках, искусственный интеллект, электронная сделка, оферта, акцепт, свобода договора, гражданско-правовая ответственность, алгоритмическое решение

Annotation. This article examines the application of artificial intelligence to the process of concluding public procurement contracts from a civil law perspective. Based on an analysis of the current civil legislation and public procurement legislation of the Republic of Uzbekistan, including the Strategy for the Improvement and Development of the Public Procurement System for 2025–2027, approved by Presidential Decree No. 259 and Cabinet of Ministers Resolution No. 865, the study provides a comprehensive analysis of the civil law implications of introducing artificial intelligence technologies into the public procurement system. In particular, it explores the role of artificial intelligence in the conclusion of public procurement contracts, the legal nature of electronic offers and acceptances, issues of civil liability arising from algorithmic decision-making, and the safeguarding of the principle of freedom of contract. The article identifies legal gaps in the national legislation and proposes the author's recommendations for improving the regulatory framework in accordance with international standards.

Keywords. public procurement contract, artificial intelligence, electronic transaction, offer, acceptance, freedom of contract, civil liability, algorithmic decision-making

Kirish. Raqamli texnologiyalar zamonida sun’iy intellekt har bir sohaga shiddat bilan kirib bormoqda. Inson omilisiz, ortiqcha xarajatlarsiz topshiriqlarni tez va oson bajarishi sun’iy intellektni nafaqat xo’jalik faoliyati, balki davlat boshqaruvida ham joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Xususan, davlat xaridlari tizimi sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash uchun eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Davlat xaridlari orqali davlat budjeti mablag‘larining salmoqli qismi sarflanishi mazkur sohada shaffoflikni ta’minlash, inson omili ta’sirini kamaytirish va korrupsiyaviy xavflarning oldini olish masalalarini alohida dolzarb etib qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, xarid jarayonlarini avtomatlashtirish hamda sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish mexanizmlarini joriy etish davlat xaridlari tizimini takomillashtirishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda.

Davlat xaridlari bugungi kunda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) ma’lumotlariga ko‘ra, a’zo davlatlarda davlat xaridlariga sarflanadigan mablag‘lar o‘rtacha yalpi ichki mahsulotning 12–14 foizini va davlat budjeti xarajatlarining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi [1]. Jahon banki ekspertlarining qayd etishicha, davlat xaridlari sohasidagi samarasizlik va

korrupsiyaviy omillar ayrim mamlakatlarda xarid qiymatining 10–25 foizigacha bo‘lgan qismini yo‘qotishga sabab bo‘lmoqda [2]. O‘zbekistonda esa Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan 2025-yilda boshlang‘ich qiymati jami 18,8 trln so‘m bo‘lgan 23 mingdan ortiq davlat xaridini o‘rganildi. Natijada 28 mingdan ortiq raqobatga zid harakatlar aniqlangan. Asosiy muammolar kelishuvlar, ayrim ishtirokchilarga imtiyozli shart-sharoit yaratish va affillanganlik holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan [3]. Shu bois xarid jarayonlarida raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham davlat xaridlari tizimini raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF–259-son farmonida 2026-yil 1-martdan davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor narxlarini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida hisoblab beruvchi elektron modulni ishga tushirish, ayrim tovarlarni xarid qilishda g‘olibni xarid komissiyasi aralashuvisiz avtomatik aniqlash hamda tavakkalchiliklarni oldindan tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish vazifalari belgilangan [4].

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bilan davlat xaridi shartnomalarini tuzish jarayonlariga ilk bora sun’iy intellektdan foydalanish tadbiq etildi. Biroq davlat xaridlarida sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat texnologik, balki murakkab huquqiy masalalarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, davlat xaridi shartnomasini tuzishda taraflarning erkin iroda bildirishi, oferta va akseptning huquqiy tabiati, avtomatlashtirilgan qarorlarning yuridik kuchi, algoritmik xatolar natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik hamda sun’iy intellekt tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat qilish imkoniyatlari fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan yetarlicha tadqiq etilmagan.

Muammoning yana bir jihati shundaki, amaldagi fuqarolik qonunchiligi bitimlar va shartnomalarni tuzishda inson irodasi va xohish-irodasining tashqi ifodasiga asoslanadi. Sun’iy intellekt esa mustaqil huquq subyekti hisoblanmaydi va huquqiy iroda egasi sifatida tan olinmaydi. Shunday ekan, sun’iy intellekt vositasida avtomatik ravishda aniqlangan g‘olib bilan tuzilgan davlat xaridi shartnomasining huquqiy tabiati, bunday qarorlarning haqiqiyligi hamda ular natijasida yuzaga keladigan fuqarolik-huquqiy oqibatlarni aniqlash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, muallif birinchi marta O‘zbekiston huquqshunosligida PF-259 va VMQ-865 asosida joriy etilayotgan sun’iy intelekt mexanizmlarini fuqarolik huquqining asosiy kategoriyalari oferta-aksept, huquqiy javobgarlik va shartnoma haqiqiyligi nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilgan.

Asosiy qism. Fuqarolik huquqida shartnoma tushunchasi legal va doktrinal ma’nolarda farqlanadi. Shartnomaning legal tushunchasi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasida belgilangan, unga ko‘ra shartnoma ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi hisoblanadi. Doktrinal tushunchalar esa turli olimlar tomonidan xilma-xil tarzda talqin etiladi. Jumladan, O.S. Ioffe shartnomani bir necha shaxslarning kelishuvi, kelishuv asosida vujudga kelgan majburiyat, taraflarning erk-irodasi asosida vujudga kelgan majburiyatni qayd etuvchi hujjat sifatida talqin etgan [6., 10-b.]. N.D. Yegorov shartnoma deganda , majburiyatning asosida yotuvchi yuridik faktni ham, shartnoma majburiyatini o’zini ham va nihoyat majburiyat huquqiy munosabatlarini belgilash fakti mustahkamlangan hujjat tushuniladi deydi [6., 11-b.] Mazkur ta’rifdan kelib chiqadigan bo‘lsak, har qanday shartnomaning markazida taraflarning ongli ravishda bildirilgan irodasi turadi.

Davlat xaridi shartnomasi ham fuqarolik-huquqiy shartnoma sifatida taraflarning erkin va ongli ravishda ifodalangan irodasiga asoslanadi. Biroq sun’iy intellekt texnologiyalarining xarid jarayonlariga kirib kelishi mazkur an’anaviy yondashuvni qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Chunki ayrim hollarda g‘olibni aniqlash, takliflarni baholash va tavakkalchiliklarni tahlil qilish kabi funksiyalar inson tomonidan emas, balki algoritmlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik adabiyotlarda sun’iy intellektning huquqiy maqomi yuzasidan turli qarashlar mavjud. Huquqiy doktrinada sun’iy intellektning huquqiy maqomiga nisbatan bir necha konseptual yondashuvlar shakllangan.

Birinchi yondashuv tarafdorlari sun’iy intellekt maqomini jismoniy shaxs maqomiga yaqinlashtirish zarurligini ilgari suradilar. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, yuqori darajada avtonom faoliyat yurituvchi sun’iy intellekt tizimlari muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan alohida subyekt sifatida e’tirof etilishi mumkin. Biroq ushbu yondashuv fuqarolik huquqining klassik institutlari, xususan, huquq layoqati, muomala layoqati va yuridik javobgarlik kategoriyalariga mos kelmasligi sababli keng qo‘llab-quvvatlanmaydi.

Ikkinchi konsepsiya sun’iy intellekt maqomini fuqarolik huquqida hayvonlarning huquqiy maqomiga qiyoslashga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, sun’iy intellekt mustaqil huquq subyekti emas, balki maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan obyekt sifatida qaraladi. Bunda uning harakatlari uchun javobgarlik tizim egasi yoki undan foydalanuvchi shaxs zimmasiga yuklatiladi.

Uchinchi konsepsiya esa sun’iy intellektning huquqiy maqomini yuridik shaxs maqomiga o‘xshash model asosida shakllantirishni taklif etadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, sun’iy intellekt alohida tashkiliy-huquqiy birlik sifatida fuqarolik muomalasida qatnashishi mumkin. Biroq mazkur yondashuv ham amaldagi huquq tizimlarida yetarli normativ asosga ega emasligi sababli ko‘proq nazariy xarakter kasb etadi [7., 90-b.].

Rus olimlari I.G. Krysanova-Kirsanova va I.O. Trushinalarning fikricha, sun’iy intellektning huquqiy maqomi masalasida yuridik adabiyotlarda ikki asosiy yondashuv shakllangan. Birinchi yondashuvga ko‘ra, sun’iy intellekt huquq obyekti sifatida qaraladi va u inson tomonidan yaratilgan texnik vosita hisoblanadi. Ikkinchi yondashuv esa sun’iy intellektga cheklangan darajada huquq subyekti maqomini berish mumkinligini ilgari suradi. Mualliflar sun’iy intellekt hozirgi rivojlanish bosqichida mustaqil huquq subyekti sifatida e’tirof etilishi uchun zarur bo‘lgan ong, mustaqil iroda va huquqiy javobgarlik belgilariga ega emasligini ta’kidlaydilar. Shu sababli sun’iy intellektning harakatlari uchun javobgarlik uni yaratgan, boshqargan yoki undan foydalangan shaxslar zimmasida qolishi kerakligini asoslaydilar [8]. O‘xshash tarzda A.V. Afanasyevskayaning ta’kidlashicha, sun’iy intellektga nisbatan huquqiy maqomni belgilashda uning texnik imkoniyatlari emas, balki huquqning fundamental kategoriyalari – huquq layoqati, muomala layoqati va yuridik javobgarlik mezonlari asos qilib olinishi kerak. Muallif sun’iy intellekt inson singari mustaqil ong, ijtimoiy mas’uliyat va erkin iroda sohibi emasligini qayd etib, uni hozirgi bosqichda mustaqil huquq subyekti sifatida tan olish uchun yetarli asoslar mavjud emas degan xulosaga keladi. Olimning fikricha, sun’iy intellekt tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlar aslida uni yaratgan yoki undan foydalanuvchi shaxslarning faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli sun’iy intellekt ishtirokida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda javobgarlik masalasi texnologiyaning o‘ziga emas, balki tegishli jismoniy yoki yuridik shaxslarga yuklatilishi lozim [7].

O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligi esa hozircha klassik yondashuvga asoslanadi. Ya’ni sun’iy intellekt mustaqil huquq subyekti sifatida e’tirof etilmaydi va uning barcha harakatlari mazkur tizimdan foydalanuvchi yoki uni boshqaruvchi shaxslarning harakatlari sifatida baholanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat xaridlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash alohida yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–259-farmonida davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor narxlarini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida hisoblab beruvchi elektron modulni yaratish vazifasi belgilangan. Ushbu Farmonga muvofiq, 2026-yil 1-martdan boshlab mazkur modul amaliyotga joriy etilishi nazarda tutilgan.

Farmonda shuningdek ayrim tovarlarning davlat xaridida xarid komissiyasi aralashuvisiz g‘olibni avtomatik tarzda aniqlash hamda xavflarni oldindan tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi ham belgilangan. Mazkur norma davlat xaridlari tizimida sun’iy intellektning nafaqat yordamchi vosita, balki qaror qabul qilish mexanizmining tarkibiy qismi sifatida qo‘llanilishini nazarda tutadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 865-qarori bilan tasdiqlangan strategiyada davlat xaridlarida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishni bosqichma-bosqich joriy etish choralari belgilangan. Qarorga muvofiq:

manfaatlar to‘qnashuvi va affillanganlik holatlarini nazorat qiluvchi dasturlarni ishlab chiqish;

nazorat organlari tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar yuzasidan avtomatik xabarnoma yuborish tizimini yaratish;

davlat buyurtmachilari tomonidan joylashtirilayotgan e’lonlarning elektron monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar davlat xaridlari sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning institutsional asoslarini yaratmoqda. Biroq ularda sun’iy intellekt yordamida qabul qilingan qarorlarning huquqiy oqibatlari, javobgarlik masalalari hamda shartnoma tuzishdagi fuqarolik-huquqiy mexanizmlar to‘liq tartibga solinmagan.

Muallifning fikricha, davlat xaridlarida sun’iy intellekt tomonidan g‘olibni aniqlash holatida haqiqiy iroda xarid e’lonini joylashtirish va algoritm parametrlarini belgilash vaqtida davlat buyurtmachisi tomonidan oldindan ifodalanadi. Algoritm esa mazkur irodaning texnologik shaklda amalga oshirilish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu sababli sun’iy intellekt yordamida qabul qilingan qarorlar mustaqil iroda emas, balki inson tomonidan oldindan berilgan topshiriqning avtomatlashtirilgan ijrosi sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

Xalqaro amaliyotda davlat xaridlarida sun’iy intellektdan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Biroq ko‘plab davlatlar sun’iy intellektning davlat boshqaruvidagi rolini cheklangan va nazorat qilinadigan shaklda qo‘llash tarafdori hisoblanadi.

Yevropa ittifoqining Sun’iy intelekt akti (AI Act) hujjatida davlat boshqaruvi va davlat xaridlariga taalluqli sun’iy intellekt tizimlari “yuqori xavfli tizimlar” qatoriga kiritilgan. Mazkur hujjatga ko‘ra, bunday tizimlar shaffof bo‘lishi, auditdan o‘tkazilishi, inson nazorati ostida ishlashi, qaror qabul qilish asoslarini tushuntirib bera olishi lozim [9].

Qozog‘iston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari orasida sun’iy intellektni huquqiy tartibga solish bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mazkur davlatda davlat xaridlari sohasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari bir tomondan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunchilik, ikkinchi tomondan esa 2026-yilda kuchga kirgan “Sun’iy intellekt to‘g‘risida”gi maxsus qonun normalari bilan tartibga solinadi.

Qozog‘iston tajribasining o‘ziga xos jihati shundaki, sun’iy intellekt davlat xaridlari shartnomalarini tuzish va ijro etish jarayonlarida qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Xususan, elektron davlat xaridlari tizimida sun’iy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

intellekt texnologiyalari yordamida shartnoma loyihalarini avtomatik tahlil qilish, potensial huquqiy va moliyaviy xavflarni aniqlash, narxlarning asossiz oshirilishi yoki qonunchilik talablariga zid qo‘shimcha kelishuvlar tuzilishining oldini olish imkoniyatlari yaratilgan. Bunday nazorat mexanizmlari xarid jarayonlarining shaffofligi va qonuniyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Qozog‘iston huquq tizimi roman-german huquq oilasi an’analariga asoslangan bo‘lib, unda sun’iy intellekt mustaqil huquq subyekti sifatida e’tirof etilmaydi. Shu sababli sun’iy intellekt davlat xaridi shartnomasining mustaqil tomoni yoki huquq va majburiyatlar egasi bo‘la olmaydi. U faqat shartnoma loyihalarini tayyorlash, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish, shartlarni optimallashtirish va tavakkalchiliklarni baholash funksiyalarini bajaruvchi intellektual vosita sifatida qaraladi.

Qozog‘iston qonunchiligining yana bir muhim jihati sun’iy intellekt tizimlari faoliyati bilan bog‘liq javobgarlik masalalarining aniq tartibga solinganligidadir. Qonunchilikka ko‘ra, agar sun’iy intellekt tizimi shartnoma shartlarini noto‘g‘ri shakllantirsa, xarid ishtirokchilarini asossiz ravishda cheklasa yoki boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqarsa, birinchi navbatda tizim operatori yoki undan foydalanuvchi davlat organi javobgar hisoblanadi. Shu bilan birga, agar zarar dasturiy ta’minotdagi tizimli nuqsonlar yoki algoritmik xatolar natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, regress tartibida javobgarlik dasturiy mahsulotni ishlab chiquvchi shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Bunday yondashuv sun’iy intellektni huquq subyekti sifatida emas, balki yuqori xavfli texnologik vosita sifatida baholashga asoslanadi. Natijada zarar yetkazilgan hollarda javobgarlikni aniqlash va zararlarni qoplash mexanizmlari ancha aniq va samarali ishlaydi.

Janubiy Koreyada faoliyat yuritayotgan KONEPS elektron davlat xaridlari tizimi dunyodagi eng rivojlangan elektron xarid platformalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tizimda sun’iy intellekt elementlari korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va monitoring qilishda qo‘llanmoqda. Biroq shartnoma tuzishga oid yakuniy qarorlar ustidan davlat organlarining nazorati saqlanib qolgan.

Mazkur tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda sun’iy intellekt inson qarorlarini to‘liq almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi texnologik instrument sifatida qo‘llanmoqda. Muallifning fikricha, O‘zbekiston uchun ham aynan shu model maqbul hisoblanadi. Chunki davlat xaridi shartnomasining fuqarolik-huquqiy tabiati taraflarning huquq va majburiyatlariga bevosita ta’sir qiluvchi qarorlar ustidan inson nazoratini saqlab qolishni talab etadi.

Davlat xaridlarida sun’iy intellektdan foydalanishning eng bahsli masalalaridan biri algoritmik xatolar natijasida yuzaga keladigan javobgarlikdir. Agar sun’iy intellekt noto‘g‘ri ma’lumotlar asosida g‘olibni aniqlasa yoki bozor narxini xato hisoblab bersa, natijada davlat yoki xarid ishtirokchilariga zarar yetishi mumkin.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Fuqarolik kodeksining zarar yetkazish va majburiyatlarni buzish bilan bog‘liq normalari bunday vaziyatlarda umumiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Biroq sun’iy intellekt bilan bog‘liq munosabatlarning murakkabligi sababli javobgarlikni buyurtmachi, operator va dastur ishlab chiquvchi o‘rtasida taqsimlash mezonlari aniq belgilanmagan.

Shu bois davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikda sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish natijasida yuzaga keladigan zarar uchun javobgarlikning maxsus qoidalarini belgilash zarur. Bunda, ayniqsa, algoritmik audit, dasturiy ta’minot sifatiga qo‘yiladigan talablar hamda avtomatlashtirilgan qarorlar ustidan shikoyat qilish mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Davlat xaridi shartnomalarini tuzishda sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni fuqarolik-huquqiy jihatdan tartibga solishni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

1. Fuqarolik kodeksida elektron bitimlar bilan bir qatorda sun’iy intellekt va boshqa avtomatlashtirilgan tizimlar orqali tuziladigan bitimlarning huquqiy rejimini belgilovchi alohida norma nazarda tutilishi lozim. Mazkur normada algoritm tomonidan amalga oshirilgan harakatlar inson tomonidan oldindan bildirilgan irodaning avtomatlashtirilgan ifodasi ekanligi mustahkamlanishi maqsadga muvofiq.

2. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunda davlat xaridlarida sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy tamoyillari, qo‘llanish chegaralari, inson nazorati, shaffoflik va javobgarlik masalalari alohida tartibga solinishi zarur. Ayniqsa, g‘olibni avtomatik aniqlash tizimlari faqat qonunda belgilangan hollarda va belgilangan tartibda qo‘llanishi kerak.

3. Davlat xaridi shartnomasi taraflarning huquq va majburiyatlariga bevosita ta’sir qiluvchi fuqarolik-huquqiy bitim bo‘lganligi sababli yakuniy huquqiy ahamiyatga ega qaror inson tomonidan tasdiqlanishi lozim. Sun’iy intellekt tavsiya beruvchi yoki tahliliy vosita sifatida ishlashi, biroq shartnoma tuzishga oid yakuniy qaror ustidan davlat buyurtmachisining nazorati saqlanib qolishi maqsadga muvofiq.

4. Agar sun’iy intellekt tizimining xatosi natijasida davlat yoki xarid ishtirokchilariga zarar yetkazilsa, javobgarlik subyektlari va mezonlari aniq belgilanmog‘i zarur.

Xulosa qilib aytganda davlat xaridlari sohasida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish va xarid jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Biroq davlat xaridi shartnomasining fuqarolik-huquqiy tabiati taraflarning erkin iroda bildirishi, oferta va aksept, javobgarlik hamda shartnoma erkinligi kabi fundamental institutlarni saqlab qolishni talab etadi.

Shu sababli O‘zbekiston qonunchiligida sun’iy intellekt yordamida tuziladigan davlat xaridi shartnomalarining huquqiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

rejimini aniq belgilash, algoritmik audit va shaffoflik mexanizmlarini joriy etish hamda inson nazoratini saqlab qolish davlat xaridlari tizimining ishonchliligi va huquqiy barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. OECD (2025), Government at a Glance 2025, OECD Publishing, Paris. URL: https://doi.org/10.1787/0efd0bcd-en.

2. World bank Public Procurement report. URL: https://thedocs.worldbank.org/en/doc/74297161167906605 8-0090022021/original/PublicProcurement.pdf

3. Davlat xaridlarida 28 mingdan ortiq raqobatga zid harakatlarni aniqlandi. URL: https://t.me/RaqobatGovUz/11751

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF–259-son “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7952218

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 865-son “2025–2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. URL: https://www.lex.uz/docs/-7271145

6. Shartnoma huquqi. Huquqshunoslik ixtisosligi bo’yicha oliy o’quv yurtlari magistratura talabalari uchun. – T.: TDYI nashriyoti, 2006. – 337 bet.

7. Афанасьевская Анна Валерьевна Правовой статус искусственного интеллекта // Вестник СГЮА. 2021. №4 (141). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoy-status-iskusstvennogo-intellekta

8. Крысанова-Кирсанова Ирина Георгиевна, Трушина Ирина Олеговна Правовой статус искусственного интеллекта // Вестник экономической безопасности. 2022. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoy-status-iskusstvennogo-intellekta-1

9. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 (Artificial Intelligence Act). URL: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32024R1689

10. Qozog‘iston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni. – 18-modda. – URL: https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z2400000106